

## BADIIY USLUBDA “KATTA” LEKSEMASINING IKKI TURKUM DOIRASIDA BARAVAR QO‘LLANILISHI

*Farzona Norimboyeva*

*Toyloq tuman 51-umumiy o‘rta ta’lim  
maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi*

*Abdumutalib To‘xtayev*

*Toyloq tuman 51-umumiy o‘rta ta’lim  
maktabi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy uslub, uning xususiyatlari, vazifalari, so‘zlarning qo‘llanilishi, uslublar aro aloqasi va “katta” leksemasining mazkur uslubda ishlatilishi hamda ma’no taraqqiyoti, ma’no kengligi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy uslub, sinonim, omonim, antonimlar, eskirgan so‘zlar, yangi so‘zlar, jargonlar, vulgarizmlar, frazeologik iboralar, xalq maqollari, sinxronik va diaxronik, sifat va ravish turkumi, badiiy tasvir vositalari, badiiy nutq, obrazli nutq, estetik ta’sir, emotsional-ekspressivlik, polisemantik so‘zlar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, .

Badiiy uslubda ma’lum bir voqelik badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalanadi va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta’sir etiladi. Bu uslubda, asosan, badiiy asarlar yaratilib, nutq obrazli va emotsional-ekspressiv bo‘ladi. Bunda tilning kommunikativ va emotsional funksiyasi qo‘shilib ketadi. Shu bilan bir qatorda, badiiy nutqda polisemantik so‘zlar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, sinonim, omonim, antonimlar, eskirgan va yangi so‘zlar, jargon va vulgarizmlar, frazeologik iboralar va xalq maqollari keng qo‘llaniladi.[1] Obrazlilik va estetik ta’sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

So‘zlar, asosan, ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Badiiy uslubni o‘rganish va tahlil qilish uchun, albatta, badiiy matnlarga murojaat etamiz. Badiiy asar matnini tahlil qilishning tilshunoslik fani manfaatdor bo‘ladigan boshqa bir jihati bor va uni ikki yo‘nalishga ajratib o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Birinchidan, badiiy asar matnidan tilni sinxronik va diaxronik yo‘nalishda o‘rganishda, tilshunoslikning esa nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda, uning ma’lum davrdagi yoki hozirgi paytdagi ahvolini, taraqqiyot qonunlarini o‘rganishda, turli kategoriyalarni ilmiy tahlil qilishda material sifatida foydalaniladi. Ikkinchidan, badiiy asar materialidan tilda yuz berayotgan sifat o‘zgarishlari, ya’ni ma’no taraqqiyotini aniqlash maqsadida foydalaniladi.[2]

Mazkur leksemaning O‘zbek tilining izohli lug‘atida(keying o‘rinlarda O‘TIL deyiladi) quyidagi leksik ma’nolari bor:

- Hajmi, o‘lchami me’yordan ortiq (katta uy);
- Tarkib jihatdan ortiq me’yorli (katta qo‘shin);

- Kuch-qudrat, darajasi yuqori (katta g'alaba);
- Yosh jihatdan ulug' (katta farzand);
- Yoshi kekxa kishi (kattani hurmat qil),
- Xizmat martabasi, unvoni jihatdan (katta ilmiy xodim),
- Ko'chma ma'noda atoqli, mashhur (katta shoir),
- Yuqori lavozimdagi amaldor (shaharning kattalari) [3] kabi;

“O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati”da katta, ulug', buyuk, zor, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant [4] kabi sinonimlari berilgan.

Sinonimik qatorda katta so'zi keng tushunchaga ega bo'lib, uslubiy betaraf, neytral so'zdir. Real va mavhum tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ulug', buyuk, zo'r, azim, azamat so'zlarida belgi nisbatan kuchli. Shuning uchun bu leksemalarlar hamma vaqt hajm-o'lchovi katta bo'lgan narsalarga ishlatiladi, lekin uslubiy chegaralangandir. Ulug', buyuk, zo'r so'zi ko'chma ma'noda kishiga nisbatan ishlatiladi: ulug' kishi, buyuk inson, zo'r odam kabi. Ulug' so'zi yoshga nisbatan ishlatilib, o'zidan katta yoshdagi odam ma'nosini anglatadi. Bahaybat, haybatli so'zlarining ma'nosi ularning o'zagidan anglashilib turibdi. Bu leksemalar faqat juda katta, me'yordan ortiq narsalarga nisbatan ishlatiladi.

Ulkan so'zida belgi nihoyatda kuchli bo'lib, yirik leksemasi bu ma'noda kam qo'llaniladi. Gigant esa kitobiy uslubga xos bo'lib, qurilish ishlarida nisbatan ishlatiladi. Salmog'i yuqori ma'nosida: Soliq katta zarba yetkazdi. (A.Qahhor)

Hajmi, o'lchami me'yordan ortiq ma'nosida: Shu kunlarda u xotini orqali yana Saidiyning qo'yniga qo'l soldi, bo'lmadi, shundan keyin umidini butun uzdi-da, “savdo siyosati”ni boshqa yo'lga burdi, ilgari katta do'konini yopib, patentini topshirdi, kichkinagina, ko'rimsiz do'kon ochib, boshqa past darajali patent oldi. (A.Qahhor) U katta odam misolida katta so'zi uch xil ma'noda qo'llanilgan. Birinchisi yoshi katta ma'noda bo'lsa, ikkinchisi aql o'rgatadigan, bo'lar-bo'lmasga ish o'rgatadigan insonlarga nisbatan ishlatilsa, uchinchisi lavozim jihatdan katta odamlarga qo'llaniladi. Yuqoridagi birinchi va uchinchi

misol anglatgan ma'no O'TILda berilgan, lekin ikkinchi gap anglatgan ma'no berilmagan. Malakali, ish tajribasi yuqori, ko'p yillardan buyon shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi ma'nosida: Abbosxon go'yo ko'p mol bilan kelgan va ko'ngliga yoqadigan kishilarga arzonroq narxda mol bera oladigan katta savdogar... (A.Qahhor) Mazkur leksema takror qo'llanilib, ma'noni kuchaytiradi. O'ta ko'rinadigan parda osilgan ikkita katta-katta derazadan nopormon shu'la tushib, undan bahor hidi kelar edi. (A.Qahhor) Yoshi jihatdan ulug', farzandlarning boshi ma'nosida: Katta akasi dom-daraksiz yo'qoldi. (A.Qahhor) Yoshi kekxa ma'nosida: Bir safar, katta odamning gapini hadeb qaytaraverishga yuzi chidamay, juma kuni kelishga va'da berdi; kelganida qanday bo'ldiki, ikki-uch soat o'tirishni mo'ljallagan odam kechasi soat o'n birgacha o'tirdi. (A.Qahhor) Atoqli, mashhur, taniqli ma'nosida: Nimasini sog'inadi

o'sha hayotning? Kulgi! Men bilaman, bu ayol xon-xoqonlarnisog'ingani yo'q, ba'zi bir katta shoirlarga ta'sib qilib shunday she'r

yozgan. (A.Qahhor) Ulkan, qalin ma'nosida: Birov yozsa, katta kitob bo'ladi. (A.Qahhor) Odamlar ko'p, me'yordan ortiq ma'nosida: Vodakachkaning ochilish marosimi katta to'yga, kattakon sayilga aylanib ketdi. (A.Qahhor) Mazkur leksema ushbu misolda to'y, sayil so'zlariga nisbatan ishlatilgan bo'lib, odamlar ko'p to'planganligi, o'yin-kulgi avj olganligi, hamma xursandligining ifodasi sifatida qo'llangan. Bunaqa katta ishni faqat katta xo'jalik – kolxoz qila oladi. (A.Qahhor) Ushbu misoldagi birinchi katta so'zi salmog'i yuqori, ko'p mashaqqat talab qiladigan ish ma'nosida qo'llangan bo'lib, ikkinchi katta so'zi odamlari ko'p joy, makonni ifodalab kelgan. Mavhum otlar bilan qo'llanilib, samimiyatni ifodalab, kuchli ma'nosida: Xotin kishini hammavaqt noumid, norozi ko'rib o'rgangan va buni xotinlik latofati deb bilgan Sidiqjonga juvonning bu gaplari, katta ishonch va zo'r mamnuniyat bilan gapirishi uncha botmadi, shuning uchun erdan qolgan qari qiz bo'lsa kerak degan xayolga bordi. (A.Qahhor) Ushbu misolda ham yuqoridagi ma'no sezilib turadi: Shundoqmi? – dedi qori yana shunaqa zo'r gap kutganday katta ixlos bilan uning yuziga tikilib. (A.Qahhor) Yoqimli, mumtoz, kishi qalbini larzaga soladigan ma'nosida: Qayerdadir childirma gijbanglamoqda, bir tomonda mayda va sho'x, ikkinchi tomonda kishining qalbini tirnaydigan katta ashulalar bo'lmoqda. (A.Qahhor) Ko'p mashaqqat talab etadigan, salmoqli ma'nosida: Dehqonchilik bunday katta ilm ekan, bu ilmning qo'lidan shuncha ish kelar ekan, partiya, hukumatimiz mamlakatni bundoq yo'ldan olib borayotgan ekan. (A.Qahhor) Yuqoridagi misollarda o'rganilayotgan leksema sifat xos semantik ma'no anglatgan. Bu so'zning ravish turkumiga xos vazifa bajargan o'rinlari quyidagi misollarda yaqqol ko'rinadi. Hajmi odatdagidan katta ma'nosida: To'pa kipriklari orasidan tepasida turgan Saidiyini, qo'lidagi negovni ko'rib ko'zlarini katta ochdi. (A.Qahhor) Bu misolda hech qanday yashirin kinoyali ma'no mavjud emas, bu so'z neytral o'z ma'nosida qo'llanilgan: odatdagi qaraladigan ko'z u safar hajmi kattalashgan holda qaralgan; To'paning ichga botib ketgan ko'zlari katta ochildi. (A.Qahhor); Saidiy ko'zlarini katta ochdi, qarshisidagi zarhal ramkali kattakon toshoynaga tikildi. (A.Qahhor); Saidiy boshini silkib ko'tardi, ko'zlarini katta-katta ochib olg'a qaradi. (A.Qahhor) kabi. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki katta+ochmoq=ravish birikma bo'lib, bu birikma ko'z leksemasiga nisbatan ishlatilgan. Bunda anglashilayotgan ma'no ko'z ochmoqdan ko'ra katta ochmoqda kuchliroqdir. Ko'zlarini katta ochmoq birikmasi bir butunligicha hayratlanish, jahli chiqish, ajablanish, seskanish, qo'rqish kabi his-tuyg'ularni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, ochmoq fe'lining ko'zga nisbatan ishlatilish o'rinlari birmuncha sermahsuldir. Xo'jaqishloqda kolxozga qarshi chiqqan to'polon ko'ziga juda katta ko'rindi. (A.Qahhor) Ushbu misolda ham katta so'zi ko'rindi fe'lga bog'lanib, gapda tarz holi vazifasini bajargan. Gapga odamning haddan

tashqari ko‘pligini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Tangriqul hoji ilonning yog‘ini yegan edi-da, qarasa bo‘lmaydigan – ishni katta qilsa, xalq gapning tagidan xabardor bo‘ladi-yu, busiz ham mehri baland bo‘lgan Vasya Tyumin va uning yor-jo‘ralariga ergashadi. (A.Qahhor) Bu misolda katta so‘zi frazeologik ibora tarkibida kelgan

bo‘lib, chalkashtirish, orqasini sur-sur qilish, ko‘pchilikka ovoza qilish kabi semantik ma‘noni anglatadi. Bunda ham qolip belgi bildiruvchi so‘z+harakat bildiruvchi so‘z=ravish tarzida bo‘lib, semantik jihatdan belgini ifodalagan, leksik jihatdan iboradir. Arziydigan, ko‘ngilni oladigan ma‘nosida: Sovg‘ani juda katta qilib yuboribsiz– ku. (A.Qahhor) Mazkur misolni o‘z ma‘nosida ham, ko‘chma ma‘noda ham tushunish mumkin. O‘z ma‘noda katta sovg‘a, ko‘chma ma‘noda kinoya, kesatiq ma‘nosi. Hajmi odatdagidan katta ma‘nosi: Mayli, yoz, katta-katta yoz. (A.Qahhor) Bunda takror orqali ortirma daraja hosil qilinib, ma‘no kuchaytirilgan. Men sizga aytsam katta ko‘rmaganni kichik ko‘radi, kichik ko‘rmaganni katta ko‘radi, ikkalasi birgalashib qarasa hech narsa ko‘zdan qochmaydi deydi xalq. (A.Qahhor) Mazkur misolda o‘rganilayotgan leksema yoshga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, metonimiya hodisasi mavjud. Ma‘no ko‘chish hodisalari so‘zning semantik taraqqiyotiga sabab bo‘ladi. Katta so‘zi bo‘lmoq fe‘li bilan birikib (qo‘shma fe‘l hosil qilib) o‘smoq, voyaga yetmoq ma‘nosida: Har nima desang ham umring uzoq bo‘lsin, shu bolaning katta bo‘lganini ko‘rgin. (A.Qahhor)

Demak, katta leksik birligi badiiy uslubda sifat va ravish turkumida baravar qo‘llanila oladi. Har ikki qo‘llanishda o‘zining semantik-stilistik ma‘nolarini namoyon eta oladi. Bunda o‘rganilayotgan leksema sifat turkumi doirasida qolib, sintaktik nuqtayi nazardan hol vazifasini bajaryapti deb hisoblaymiz. Tildagi har qanday so‘z nutq jarayonida o‘zining yangi ma‘no qirralarini namoyon etadi, yangidan-yangi so‘zlar yasalishiga, ular orqali tilning leksik qatlami boyishiga sabab bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –Б.3
2. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: 2010. –Б.98-99
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати беш жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006. Б. 386
4. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. –Б.120